

**«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BO‘RIYEVA MAHBUBA SHAVKATOVNA

**MIGRANT OILALARDAGI ER-XOTIN EMOTSIONAL
MUNOSABATLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(tashqi mehnat migrantlari misolida)**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Bo‘riyeva Mahbuba Shavkatovna

Migrant oilalarda er-xotin emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (tashqi mehnat migrantlari misolida).....5

Буриева Махбуба Шавкатовна

Социально-психологические особенности эмоциональных отношений супругов в семьях мигрантов (на примере иностранных трудовых мигрантов).....25

Burieva Makhbuba Shavkatovna

Socio-psychological characteristics of emotional relationships between spouses in migrant families (on the example of foreign labor migrants)49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«OILA VA XOTIN-QIZLAR» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BO‘RIYEVA MAHBUBA SHAVKATOVNA

**MIGRANT OILALARDAGI ER-XOTIN EMOTSIONAL
MUNOSABATLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(tashqi mehnat migrantlari misolida)**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P687 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti veb-sahifasi www.moiti.uz va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziyo.net)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li**
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar: **Shamsiyev O'ktam Baxriddinovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01.raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil « ___ » _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51 uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya bilan «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51 uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz , mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil « ___ » _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

B.B.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.M.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda migratsiya jarayoni insonlarning jismoniy va psixik salomatligi, oilaviy qadriyatlari hamda an'analariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Migratsiya fenomenning ta'sirida global axloqiy muhitning transformatsiyasiga qarshi kurashish, migrantlarning oilaviy munosabatlardagi agressivlik va stressli holatni oldini olishga qaratilgan zamonaviy ishlash mexanizmlari yaratilmoqda. "Migratsiya deyarli barcha jamiyatlarga ta'sir qiluvchi ko'p yillik jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda ko'plab muhim o'zgarishlarni o'rganish ko'lami, yo'nalishi, demografiyasi va chastotasi tushunishga yordam berishi orqali samarali dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo'la oladi".¹ Yangi ijtimoiy muhitga moslashuvdagi qiyinchiliklar, madaniyatlararo qadriyatlar to'qnashuvi, mehnat va ishga joylashish borasidagi muammolar, immigrant jamiyatda migrantlarga nisbatan beqaror, bag'rikeng bo'lmagan munosabatlar shakllanishi bilan bog'liq muammolar yechimiga qaratilgan individual ishlash mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar migratsiya jarayonining oila mustahkamligiga ta'siri, migrant oilalar barqarorligi ta'minlash, oilaning ichki psixologik muhiti yaxshilash, migrant er-xotin munosabatlarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Migratsiya jarayoni migrant oilalar uchun inqirozli vaziyatlar, psixologik qiyinchiliklar, shaxsiy o'zgarishlar, sterotiplarning buzilishi, qadriyatlar yo'nalishida o'zgarishlarga olib kelmoqda. Migratsiya natijasida turmush sharoitining o'zgarishi, er-xotin jinsiy munosabatlarda frigidlik, ajrimlar, hiyonat bo'lishi, oiladagi rollar taqsimotining buzilishi, jismoniy, hissiy, xulq-atvor mezonlari o'zgarishiga oid ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar o'tkazish ilgari surilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda mehnat migrantlarini huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy ko'mak berish, migrant oilalarning uyda qolgan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash va mehnat migratsiyasini qonuniy xavfsiz tizimini shakllantirishga oid keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "... biz mehnat migratsiyasi kabi nozik masalaga alohida e'tibor qaratdik, tizimli hamkorlikni tashkil etish, samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirdik. Biz hali bu masalada har tomondan zaruriy tartibni yo'lga qo'yamiz" - deb ta'kidlagan². Migratsiya jarayonlari oilaviy hayotning ijtimoiy-psixologik muammolari, xorijdan qaytib kelgan fuqarolarga hamda ularning oila a'zolariga har tomonlama psixologik yordam ko'rsatish, migrant oilasining etnopsixologik xususiyatlari, migratsiya jarayonida er-xotin nizolari, rollar taqsimoti, oiladagi shaxslararo munosabatlar, er-xotinlarda nikohdan qoniqqanlik xususiyatlari yo'nalishida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2020-yillar davomida tashqi mehnat migratsiyasi yo'nalishida o'n ikkita muhim hujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oltita qarori, bitta farmoni, Vazirlar Mahkamasining to'rtta qaror

¹ <https://publications.iom.int/system/files/pdf/WMR-2022-RU.pdf>

² <https://tass.ru/ekonomika/20914319>

qabul qilindi va normativ-huquqiy baza shakllantirildi.³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida” Farmoni, 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-112-sonli «Fuqarolik va migratsiya sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» Farmoni, shuningdek mazkur masalaga oid hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma‘lum darajada ahamiyat kasb qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ish Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Migrant oilalardagi er-xotinlarning hissiy munosabatlari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oila-nikoh munosabatlari sohasidagi tadqiqotlar ortib bormoqda.

Mamlakatimizda psixolog olimlar X.U.Abdusamatov, G.N.Niyazmetova, N.A.Sog‘inov, U.S.Saribayeva, Yu.A.Yakubov, G‘.B.Shoumarovlarning⁴ ishlarida oila va oilaviy munosabatlar masalalari maxsus ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan bo‘lsa, migratsiya jarayoni ijtimoiy-gumanitar soha doirasida S.K.Alimov, D.A.Djunaydullayev, D.V.Rasulova, F.Y.Parmonovlarning ishlarida o‘rganilgan⁵.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida migratsiya borasida o‘ziga xos ilmiy yondashuvlar yaratilgan bo‘lib, yaqin o‘n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlar ko‘lamli tadqiq etishga alohida e‘tibor berila boshlangan. O.I.Brusina, V.V.Konstantinov, O.S.Petrova, S.V.Smirnova migrantlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va integrativ imkoniyatlari xususiyatlarini o‘rganishgan⁶.

³ <https://yuz.uz/news/xavfsiz-tartibli-va-qonuniy-mehnat-migratsiyasini-tashkil-etish-tizimi-tubdan-ozgardi>

⁴ X.Abdusamatov. “Migrant oilalarining ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlar” Psixol. fan. dok. diss. – T.,2022; G.N.Niyazmetova. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari; Psixol.fan.nomz. diss. avtoref. – T.: O‘zMU, 2010; H.A.Согинов. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семе. Дисс. канд. психол. Наук. -Киев. 1990. – 215 с; U.S.Saribayeva. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta‘siri. Psixol.fan.nomz....diss. avtoref. – T.: O‘zMU,2007; Ю.А.Якубов. О рассогласованности ролевого проведения супругов как факторе дестабилизации брака /На материале узбекской семи. – В сб.:Актуализация личности в системе общественных отношений. – М., 1989. – С.223-224; G‘.B.Shoumarov. “O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari” Respublika ilmiy amaliy konferensiya. – T.,1993. – B.56-51.

⁵ S.K.Alimov “Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida” Falsafa fan. Nomz. diss. - T.,2022,-18 b; D.Djunaydullaev. O‘zbekiston mintaqalarida aholi migratsiyasi va uni tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisod. fan. nomz. diss. avtoref. – T.:, 2022. – 27 b; D.R.Rasulova. “Bozor munosabatlari tizimida ishchi kuchi migratsiyasining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish”. Iqtisod. fan.nomz.diss.- T.:, 2010. – 39 b; F.P.Parmonov. “Migratsiya jarayonlarini boshqarishda inson omili”. Sotsiol.fan.nomz.diss.- T.: O‘zMU, 2012. – 3 b.

⁶ O.I. Брусина. Мигранты из Средней Азии в России: этапы и причины приезда, социальные типы, организаци диаспор / O.I. Брусина // Вестник Евразии. – 2008. – №2; В.В Константинов. Социально-психологическая адаптация вынужденных мигрантов в условиях диффузного и компактного проживания / В.В. Константинов // Психологический журнал. – 2005. – Т.26. – №2; O.C.Петрова. Проблемы социальной адаптации

Y.V.Abdullayev, T.N.Kameneva, Y.M.Orlova, T.G.Stefanenko, V.V.Zotov migratsiya sharoitida oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy oqibatlarini hamda migratsiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy mavqe, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, men obrazining buzilishi, aybdorlik hissi borasida tadqiqotlar olib borishgan⁷. M.N.Efremenkova, V.V.Gritsenko, N.V.Muravdenkova, T.N.Smotrova o'zlarining migrant oilalarning emotsional munosabatlarini o'rganishda e'tiborini qaratgan bo'lsa, Samolensk gumanitar universitetining bir guruh tadqiqotchilar migrantlar va migrant bo'lmaganlar oilalarida nikohdan qoniqish darajasini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan bo'lishsa, Ye.N.Didenko, Tarnovska-Yakobes oilalardagi nikoh munosabatlari muammosi migrasiyadagi er-xotinlarning orasidagi masofaviy nikohlarning funksiyalari bo'yicha keng qamrovli psixologik tadqiqotlarda o'rgangan⁸.

Xorijda migrant oilardagi munosabatlar D.Cohenlar, G.Engbersen, E.Kepinska, J.Ryan, A.Triandafyllidou, D.Zuberilar tomonidan o'rganilgan⁹. F.Dyuvel va D.Fogel ilmiy izlanishlarida mehnat migrasiyasini o'rganish asosida migrantlar tipologiyasini ajratib ko'rsatishgan¹⁰. G.Engbersen va uning hamkasblari migrantlarning o'z vataniga va yangi yashash davlatiga bog'lanish darajasiga qarab migratsiyaning to'rt turini taklif qildilar va uni migratsiyaga bog'lab tushuntirishga harakat qilgan¹¹.

Migrant oilalardagi er-xotinlarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, migratsiyaning oiladagi er-xotin munosabatlariga ta'siri uning oqibatlarini, oila munosabatlariga ta'siri masalalari alohida tadqiqot doirasida o'rganilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini oshiradi.

среднеазиатских трудовых мигрантов в Санкт-Петербурге / О.С. Петрова // Вестник ТГУ. – 2011. – №12; С.В.Смирнова. Особенности адаптации трудовых мигрантов из стран Средней Азии / С.В. Смирнова // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Психология. – 2011. – №42 (259);

⁷Е.В.Абдуллаев Трудовая миграция как феномен развивающегося общества / Е.В. Абдуллаев // Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб.ст. / Отв. ред. Е.В. Абдуллаев. – Ташкент, 2008; В.В.Зотов, Т.Н.Каменева, Е.М.Орлова. Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализации пространства жизнедеятельности человека// Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета, — 2013 г; Т.Г.Стефаненко Этнопсихология: практикум / Т.Г. Стефаненко. – М.: Аспект Пресс, 2006.

⁸В.В.Гриценко, М.Н.Ефременкова, Н.В.Муратценкова, Т.Н.Смотрова. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. - Смоленск: Смоленский гуманитарный университет, 2014. В коллективной монографии; Е.Н. Диденко Психология события супругов в семьях моряков и "береговых" семьях: Автореф. дис. канд. психол. наук. Краснодар, 2008; Тарновска-Якобец У. Социализация в семьях с дистантным отцовством: монография. М.: Изд-во Моск. гуманит. ун-та, 2005

⁹Cohen D. Cultural psychology / D. Cohen // APA Handbook of Personality and Social Psychology, Vol. 1: Attitudes and Social Cognition / M. Mikulincer, P. R. Shaver, E. Bordiga, J. F. Bargh (Eds.). – US: American Psychological Association. – 2015. – P. 415-456; Kepińska E. Gender differentiation in seasonal migration: the case of Poland / E. Kepińska // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2013. – Vol. 39. – № 4; Ryan J. Chinese women as transnational migrants: gender and class in global migration narratives / J. Ryan // International Migration. – 2002. – Vol. 50. – № 2; Triandafyllidou A. The governance of international migration in Europe and North America: Looking at the interaction between migration policies and migrants' strategies / A. Triandafyllidou // Journal of Immigrant and Refugee Studies. – 2008. – Vol. 6. – №3; Zuberi D. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada / D. Zuberi, M. Ptashnick // International Migration. – 2012. – Vol. 50. – № 1.

¹⁰ F.Dyuvel, D.Fogel. Contemporary Polish Migration in Europe. Complex Patterns of Movement and Settlement / A. Triandafyllidou (Ed.). – New York: Edwin Mellen Press, 2006.

¹¹ Engbersen G. On the differential attachments of migrants from Central and Eastern Europe: A typology of labour migration / G. Engbersen, A. Leerkes, I. Grabowska-Lusinska, E. Snel, J. Burgers // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2013. – Vol. 39, № 6.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasidagi JHBL-92-sonli «Migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi migrant oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

mehnat migranti oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlari ritmikasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni turmush stajiga ko'ra tasnifiy birlikda empirik tahlil etish;

migrant hamda migrant bo'lmagan oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlaridagi yetakchi psixologik determinantlarni aniqlash;

migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi er-xotinlarda o'zaro tushunish, hissiy intilish, o'zaro hurmat xususiyatlarining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni tadqiq etish;

migrant va migrant bo'lmagan er-xotinlardagi hissiy munosabatlarni etnomadaniy, turmush tajribasi, jins tafovuti jihatdan solishtirish orqali olingan ilmiy-amaliy natijalar asnosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona, Jizzax va Surxondaryo viloyatidagi mehnat migranti oilalaridagi 162 nafar erkak hamda ayol, 148 nafar migrant bo'lmagan oilalardagi erkak va ayollar jalb qilinib, respondentlarning umumiy soni jami 310 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqotning predmetini mehnat migranti oilalardagi er-xotinlar emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi bir nechta metodikalar qo'llanildi. Er-xotinlarning nikohdan qoniqish darajasini emotsional munosabatlariga ta'sirini o'rganish maqsadida Yu.E.Aleshinaning «Nikohdan qoniqish darajasi»ni aniqlash metodikasi, A.N.Volkovaning «Er-xotinlarning o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik, o'zaro hurmat omillarni o'rganuvchi» metodikasi, oilalardagi hissiy munosabatlarni aniqlashga qaratilgan L.Ya.Gozman, Yu.E.Aleshina tomonidan modifikatsiya qilingan «Simpatiya va sevgi shkalasi» so'rovnomasi, A.Uessmanom va D.Riksomning «Emotsional holatda o'z-o'zini baholash» metodikasi, B.I.Dodonovning «Shaxsning umumiy hissiy yo'nalishini aniqlash» so'rovnomalari hamda olingan ma'lumotlarning ishonchliligi matematik-statistik metodlardan Mann-Uitni-U, Kraskel-Uollis-H va Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsienti mezonlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

migrant er-xotin munosabatlarining progressiv-dinamikasiga ko'ra, emotsional munosabatlarining ritmik-indikativlari hissiy, kognitiv, konativ, irodaviy-motivatsion oilaviy hayot yo'li dinamikasidagi komponentlarni «funksionallashtirish» natijasida intim balans, krisizli vaziyatlarda konformizm migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining «psixoenenergetik yadrosi» bo'lishi isbotlangan.

migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining psixologik ritmikasinani namoyon bo'lishiga ko'ra, «o'zaro tushunish», «simpatik sevgi», «emotsional loyallik» va «hissiy qoniqish» ko'rsatkichlarini dinamik-progressivligi asosida oilaviy hayot dinamikasining ierarxik pozitsiyalarida yosh oila davrida «hissiy tushunish-intilish», «o'zaro hurmat» hamda «emotsional-intim qoniqish» xususiyatlarini shakllanishi aniqlangan;

migratsiya jarayoni er-xotinning oiladagi roli, oilaviy hayot siklida nikohdan qoniqishi, hissiy yaqinlik darajasiga teskari proporsionalligiga ko'ra, er-xotin emotsional munosabatlarining yetakchi psixologik determinantlari «oilaviy burch va zavq hissi», «daxldorlik motivatsiyasi»ni pastligi migrant oilalardagi ajrim predektiv indikatorlari ekanligi isbotlangan;

migrant oilalardagi er-xotinlar emotsional munosabatlarini namoyon bo'lishiga ko'ra, «energiya va charchoq», «munosabatlardagi subyektiv ishonchsizlik», «reaktiv xavotirlanish», «praksik», «pugnik emotsional tonus» munosabatlarni hissiy ustuvorligi tufayli «hissiy va kommunikativ labillik» er-xotinning yetakchi emotsional impulsiv «mexanizm» ekanligi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarini tadqiq etuvchi kompleks psixodiagnostik metodikalar takomillashtirilgan;

migrant oilalardagi er-xotinlarda oilaviy hayotdan qoniqish, hissiy yaqinlik hamda ajrim prevensiyasiga oid psixologik chora-tadbirlar ifodalangan metodik dastur ishlab chiqilgan;

migrant oilalardagi er-xotinlarning ijtimoiy-psixologik muammolaridan kelib chiqib, ularga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishning qulay va samarali usuli sifatida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi er-xotinlar emotsional munosabatlarini qiyosiy o'rganish orqali «Migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining ritmik-indikativ psixologik modeli» takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining psixologik xususiyatlarini yaxlit ochib beruvchi, jahon psixologiyasida ko'p marotaba foydalanilgan so'rovnomalar qo'llanilgani hamda amaliy natijalar miqdoriy ko'rsatkichlarining matematik-statistik metodlari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarni amaliyotda joriy etilganligi va olingan natijalarni tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta'riflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ahamiyati shundan iboratki, psixologik xotirjamlik, an'anaviy turmush shart-sharoitini asrab qolish, migratsiya jarayonining oiladagi nikoh munosabatlari, er-xotinning emotsional va jinsiy munosabatiga ta'siri, migrant oila muammolarini hal etishga oid umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan oila, ijtimoiy sohalarga psixologik xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan xulosa va tavsiyalardan mehnat migratsiyasi zahirida yuzaga keladigan nikoh-oila

munosabatlari muammolarini bartaraf etishda, mahallalarda oilalar bilan shugʻullanuvchi xotin-qizlar faollari, nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari, amaliyotchi psixologlar faoliyatida, oilalarga psixologik xizmat koʻrsatish markazlari va boshqa davlat tashkilotlari faoliyatida foydalanish mumkinligida namoyon boʻladi.

Natijalarning joriy qilinganligi. Oʻzbekistonda migrant oilalaridagi er-xotinning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan oʻtkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

migrant er-xotin munosabatlarining progressiv-dinamikasiga koʻra, emotsional munosabatlarining ritmik-indikativlari hissiy, kognitiv, konativ, irodaviy-motivatsion oilaviy hayot yoʻli dinamikasidagi komponentlarni «funksionallashtirish» natijasida intim balans, krisizli vaziyatlarda konformizm migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining «psixoenenergetik yadrosi» boʻlishi isbotlanganligi oid takliflari «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining «Ayollar ichki va tashqi mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari tadqiq qilish» nomli ish rejasiga kiritilgan. («Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 31-yanvardagi 01/09/1784-son maʼlumotnomasi). Natijada ayollar mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, omillari va oqibatlarini yoritishda ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

migratsiya jarayoni er-xotinning oiladagi roli, oilaviy hayot siklida nikohdan qoniqishi, hissiy yaqinlik darajasiga teskari proporsionalligiga koʻra, er-xotin emotsional munosabatlarining yetakchi psixologik determinantlari «oilaviy burch va zavq hissi», «daxldorlik motivatsiyasi»ni pastligi migrant oilalardagi ajrim predektiv indikatorlari ekanligi isbotlanganligiga oid taklif va tavsiyalari «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining «Mehnat migranlarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash va reintegratsiya qilishning pedagogik-psixologik jihatlari» nomli ish rejasiga kiritilgan. («Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 31-yanvardagi 01/09/1784-son maʼlumotnomasi). Natijada mehnat migrantlarining ijtimoiy-huquqiy, pedagogik-psixologik muammolarini oʻrganishga oid tadqiqot dasturini ishlab chiqish va oʻtkazishda foydalanildi.

migrant oilalardagi er-xotinlar emotsional munosabatlarini namoyon boʻlishiga koʻra, «energiya va charchoq», «munosabatlardagi subyektiv ishonchsizlik», «reaktiv xavotirlanish», «praksik», «pugnik emotsional tonus» munosabatlarni hissiy ustuvorligi tufayli «hissiy va kommunikativ labillik» er-xotinning yetakchi emotsional impulsiv «mexanizm» ekanligi aniqlanganligiga oid takliflari «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining «Tashqi mehnat migratsiyasining oilaning ijtimoiy-demografik barqarorligiga taʼsiri baholash» nomli ish rejasiga kiritilgan. («Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 31-yanvardagi 01/09/1784-son maʼlumotnomasi). Natijada joylardagi mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash organlari hodimlari uchun tashqi mehnat migratsiyasini oilalarning ijtimoiy-demografik barqarorligiga taʼsirini oʻrganish va baholash uslubiyoti tayyorlashda xizmat qildi.

migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining psixologik ritmikasida «oʻzaro tushunish», «simpatik sevgi», «emotsional loyallik» hamda

«hissiy qoniqish» ko‘rsatkichlari dinamik-progressiv xarakterda ekanligi isbotlangani asosida oilaviy hayot dinamikasining ierarxik pozitsiyalarida dastlabki yosh oila davrida «hissiy tushunish-intilish», «o‘zaro hurmat» hamda «emotsional-intim qoniqish» ustun bo‘lishi aniqlanganligi to‘g‘risidagi taklif va tavsiyalari «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining «Migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli ish rejasiga kiritilgan. («Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 31-yanvardagi 01/09/1784-son ma’lumotnomasi). Natijada migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqishda keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 2 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etilishi tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, shu jumladan 3 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to‘qqizta paragraf, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lgan, dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Oilada er-xotinning emotsional munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o‘rganilganligining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida oilalaridagi er-xotinlarning emotsional munosabatlarini ta’sirlashuvi, o‘zgarishi, oilaning axloqiy muhiti, migratsiya jarayonining juftliklarning hissiy munosabatlari jihatlariga ta’siri masalalari tahlil qilingan.

Dastlabki paragraf jahon adabiyotlar tahliliga qaratilgan bo‘lib, migrant oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik muammolariga doir nazariy manbalarni tahlil qilinib, mehnat migrantlari va qabul qiluvchi jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni (A.B.Dmitriyev, G.A.Pyaduxov), migrantlarni ijtimoiy-psixologik moslashuvi (G.U.Soldatova, L.A.Shaygerov), madaniy assimilyator modelini (T.G.Stefanenko), ijtimoiy-psixologik moslashuvi (N.S.Palagina), ayollarning mehnat migratsiyasi (D.V.Poletaev, S.V.Ryazansev, T.K.Rostovskaya, S.N.Peremishlin), oilalarida nikohdan qoniqish darajasi (V.V.Gritsenko, M.N.Efremenkova, N.V.Muratsenkova, T.N.Smotrova), migrant

oilalarida er-xotin emotsional munosabatlari (V.V.Zoto, T.N.Kameneva, Y.M.Orlov) kabi masalalar yoritilgan.

O‘zbek oilalaridagi milliy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikoh munosabatlarini, oilaviy turmush faoliyati, uning barqarorligi va farovonligi, oiladagi er-xotin munosabatlarining turli ijtimoiy-psixologik tomonlari, shuningdek oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning tinch-totuv, baxtiyor yashashlarida o‘zaro bir-biriga bo‘lgan hissiy munosabatlari, mosligi tomonlariga e’tibor qaratishadi. Jumladan, Yu.A.Yakubov o‘zbek oilalaridagi er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan, N.A.Sog‘inov o‘zbek oilalarida nikohdan qoniqqanlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, X.U.Abdusamatov migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari hamda ijtimoiy tomondan S.K.Alimov aholi migratsiyasining ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi, F.E.Parmonov migratsiya jrayonlarini boshqarishda inson omili, D.R.Rasulova iqtisodiy tomonidan tahlil qilingan va o‘rganilgan.

Dissertatsiyaning «**Migrant oilalarni nikohdan qoniqish darajasini psixologik xususiyatlarini eksperimental o‘rganilganligi**» deb nomlangan ikkinchi bobida er-xotinning bir-birini tushunishi, bir-birlariga hissiy intilishlari, o‘zaro hurmati, ularning o‘z nikohlaridan qoniqqanliklari hamda bir qator shu kabilar oila mustahkamligini ta’minlovchi muhim psixologik omillarning namoyon bo‘lish jihatlari tahlil qilingan.

1-jadval

Nikohdan qoniqish ko‘rsatkichining oilaviy turmush tajribasiga ko‘ra farqlari (migrant oilalar misolida) (n=162)

Shkalalar	O‘rtacha rang			Statistik qiymat	
	1-5 yillik (n=35)	6-10 yillik (n=43)	11-15 yillik (n=84)	H	p
Nikohdan qoniqish darajasi	103,81	66,82	62,87	21,713	0,000**

Izoh: **- $p < 0,01$

Mehnat migranti oilalardagi er-xotinlarda oilaviy turmush stajining nikohdan qoniqish darajasiga bog‘liqligi aniqlash orqali birinchi guruh 1-5 yilgacha bo‘lgan yosh oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 103,81 ni tashkil etdi. Yu.E.Aleshina nikohdan qoniqish oilaning turmush stajiga bog‘liq bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Uning fikricha oilaning birinchi boshlanish davrida nikohdan qoniqish baland bo‘ladi, keyingi o‘n yilligida 12 yildan 18 yilgacha bo‘lgan oraliq vaqtda qoniqish minimal darajada pasayadi, keyin esa bu ko‘rsatkich yana ko‘tariladi. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib migrant oilalarida oilaviy hayotning dastlabki yillarida nikohdan qoniqqanlik darajasining yuqori bo‘lishi, bizning nazarimizda ko‘plab omillar bilan bog‘liqdir. Bu birinchi navbatda yosh oiladagi juftliklarda hissiy munosabatlarning hali susaymaganligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro sevgi, simpatiya hamda hissiy intilish kabi psixologik omillar bilan bir paytning o‘zida yangi oila tarzida oiladagi yaqinlari tomonidan moddiy yordam berilishi, oila byudjetini tashkil etish hamda turmush tashvishlaridan ozod bo‘lishi bilan ta’riflanadi. Yuqoridagi kelib chiqqan natijalardan xulosa qilgan holda nikohdan qoniqish er hamda xotin o‘zining oilaviy turmushi

stajining avvalgi va hozirgi holatini tasavvur qilgan holda birgalikda yashagan hayotidan qoniqish hosil qilishining natijasida hayotidan mamnunligini bilsak bo‘ladi (2-jadval). Keyingi 6-10 yillik turmush stajiga ega bo‘lgan mehnat migranti oilalarda nikohdan qoniqish darajasining o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 66,82 ni tashkil etdi. Qoniqish darajasining past bo‘lishi oilaning ijtimoiy demografik holati, iqtisodiy tomoni, bolalarning ko‘payishi, er-xotinlarning yosh ko‘rsatkichlari, uyda uy-xo‘jalik ishlarining taqsimoti, ijtimoiy faoliyat hamda jinsiy munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi bilan bog‘liq.

Birgalikdagi oilaviy hayotning 11-15 yiligidagi mehnat migrant oilalarda nikohdan qoniqishi turmush stajiga bog‘liq ravishda pasayganini ko‘rsak bo‘ladi 62,87. Bu yerda migrant oilalarda mehnat migratsiyasi sababli oilalarda er-xotinlarning uzoq muddat bir-biridan ajralishi ular orasidagi emotsional munosabatlarni ma‘lum darajada pasayishiga olib keladi va buning natijasida nikohdan qoniqish darajasi ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki ma‘lum inqirozlar, omillar sababli turmush stajining ortishi bilan nikohdan qoniqish ko‘rsatkichlarining kamayishiga olib kelmoqda. Migratsiyaning ma‘lum ta‘siri ham bunga bog‘liqdir ($H=21,713$; $p<0,01$) (1-jadval).

2-jadval

Migrant oilalardagi hissiy munosabatlar hamda migrantlik ko‘rsatkichlarining bog‘liqliklar qonuniyati (n=162)

Aloqadorliklar	Turmush tajribasi	Migrantlik muddati	Sevgi	Simpatiya	Nikohdan qoniqish
O‘zaro tushunish	0,253**	-0,286**	0,195*	0,129	0,078
Hissiy intilish	-0,031	-0,126	0,455**	0,392**	0,429**
O‘zaro hurmat	0,242**	-0,168*	0,474**	0,407**	0,213**

Izoh: *- $p<0,05$, ** - $p<0,01$

Olingan natijalar asosida migrant oiladagi erkak-ayollarda nikohdan qoniqishning prediktorlari sifatida migrantlik muddati ma‘lum darajada er-xotin o‘rtasida o‘zaro tushunish omiliga ta‘sir ko‘rsatib uning pasayishiga olib keladi ($r=-0,286$; $p<0,01$). Mehnat migranti oilalarda oilaviy turmush staji davomida erkak va ayol bir-biriga nisbatan tushunish qanchalik ko‘p bo‘lsa, u o‘zi va sherigida shunchalik umumiy xususiyatlarni topsa, u teng huquqli oila tuzilishiga shunchalik moyil bo‘ladi hamda oilaviy hayotning barcha jabhalarida birgalikda teng ishtirok etishga e‘tibor qaratadigan o‘zaro tushunish omilining oshishiga olib kelar ekan ($r=0,253$; $p<0,01$). Juftlik orasida sevgining uch komponenti jinsiy yaqinlik, ishtiyoq hamda mas‘uliyat ular orasida munosabatlarda ochiqlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash, ehtiros, jinsiy joziba, hayrat, quvonchni baham ko‘rish oilalarni mehnat migratsiyasi jarayonida bir-birlaridan majburiy uzoqlashish vaziyatiga qaramasdan o‘zaro tushunish omilini baland bo‘lishiga olib kelar ekan ($r=0,195$; $p<0,05$). Shu bilan birga, mehnat migrantlari erkaklar va ayollar o‘rtasidagi hissiy intilish oilaviy munosabatlarning uyg‘unligini ta‘minlash, ularga nikohdan qoniqishni his qilish imkonini beradi ($r=0,429$; $p<0,01$) ularning psixoemotsional holati va jinsiy hayotidan qoniqish kabi emotsional munosabatlarni shakllantiradigan sevgi hamda

simpatiyaning rivojlanishiga olib kelar ekan ($r=0,455$; $p<0,01$; $r=0,392$; $p<0,01$) (3-jadval).

Mehnat migrant oilalarda turmush o'rtog'lar bir-biriga qanchalik hurmat va ehtirom ko'rsatishsa, o'zlari hamda sherigida qanchalik umumiylikni birlashtirsa oilaviy hayotning barcha sohalarida birgalikda ishtirok etish uchun, ularning ikkinchi yarmi bilan bo'lgan hissiy munosabatlaridagi sevgi va simpatiyadan qoniqish shunchalik kuchli bo'ladi ($r=0,474$; $p<0,01$; $r=0,407$; $p<0,01$), ularning psixo-emotsional holati va jinsiy munosabati, oilasining moddiy farovonlik darajasini ijobiy baholashi nikoh munosabatlaridan qoniqishi shunchalik yuqori bo'ladi ($r=0,213$; $p<0,01$). Migrantlik muddatining ortishi bilan er-xotinlar o'rtasida o'zaro hurmat omilining pasayishiga olib kelar ekan ($r=-0,168$; $p<0,05$) (2-jadval).

3-jadval

O'zaro tushunish, hissiy intilish va o'zaro hurmat darajasi ko'rsatkichlarining jins tafovutlari (migrant oilalar misolida) (n=162)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Erkaklar (n=75)	Ayollar (n=87)	U	p
O'zaro tushunish	61,75	89,53	1845,5	0,000**
Hissiy intilish	71,19	81,77	2497	0,139
O'zaro hurmat	63,54	88,05	1969,5	0,001**

Izoh: **- $p<0,01$

Shunday qilib, tahlillar natijasida mehnat migranti oilalarida nikohdan qoniqishning psixologik determinantlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan o'zaro tushunish omillari bo'yicha erkaklarda (61,75) ayollarnikiga (89,53) nisbatan pastroq ko'rsatkich aniqlandi ($U=1845,5$; $p<0,01$). Olingan natijalarni sarhisob qiladigan bo'lsak, mehnat migratsiyasi sababli boshqa shaharga ishlash uchun ketgan erkakka bir tomondan oilaning moddiy farovonligini va ayolining qoniqishini oshirish imkonini beradi lekin boshqa tomondan, erkaklar uchun nikohdan qoniqish tomonlaridagi psixo-emotsional holati, jinsiy hayoti va jamiyatdagi mavqei kabi tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Migrantlarning ayollarida o'zaro tushunish omilining baland bo'lishi ularni turmush o'rtog'ining xatti-harakati, fikrlari, his-tuyg'ulari va niyatlarini tushunish ular uchun qiyinchilik tug'dirmaydi va muloqot jarayonida ushbu ifodalarni osongina hisobga oladi. Erkaklarda tushunish darajasining past bo'lishi ayoli haqidagi aniq tasavvurning yetishmasligi, uning fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini talqin qilish va tushuntirishda qiyinchiliklarga uchraydi (3-jadval). Mehnat migrantlarining ayollarida o'zaro hurmat ko'rsatkichining (88,05) yuqori bo'lishi, turmush o'rtog'iga hurmat bilan munosabatda bo'ladi hamda shunga intiladi, uning dunyoqarashi, qiziqishlari va fikrlarini baham ko'rish qobiliyatini shakllantiradi. Migrant erlarda bu ko'rsatkich (63,54) pastroq natijaga ega bo'lishida uzoq vaqt er-xotinlarning bir-biridan ayro yashashi ularda jinsiy munosabatlarda qoniqmasligi hissini yuzaga keltiradi ($U=1969,5$; $p<0,01$).

Dissertatsiyaning «**Migrant oilalardagi er-xotinning emotsional munosabatlarini empirik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobda migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi er-xotinning hissiy munosabatlariga sevgi va


simpatiyaning ta'siri, er-xotinlarni emotsional munosabatlarda o'z-o'zini baholashning psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotimiz davomida L.Ya.Gozman, Yu.E.Aleshina tomonidan modifikatsiya qilingan «Simpatiya va sevgi shkalasi» metodikasida o'tkazdik.

Mehnat migratsiyasi nafaqat oilalarga balkim shaxsning o'ziga ham ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi. Boshqa davlatga ma'lum bir muddatga ishlashga ketish paytida oilada er-xotin o'rtasidagi emotsional munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar albatta shaxsning o'zidagi emotsional holatiga ham salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga turtki bo'lishi mumkin. Oiladagi farzandalarning ko'payishi, ularni moddiy jihatdan ta'minlash, o'qitish, uylantirish kabi muammolar ulardagi emotsional holatining pasayishiga ya'ni tushkunlik holatiga sabab bo'lar ekan ($r=-0,205$; $p<0,05$). Bunday vaziyat bilan to'qnashganda ushbu muammolarni bartaraf etishga sarflangan vaqt oralig'ida salbiy emotsiyalarni uzoq vaqt his qilib yurishi natijasida o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi oqibatida ishonchsizlik shakllanadi ($r=0,167$; $p<0,05$). Bu mehnat migrantlarining oiladagi bu muammolar bilan bir qatorda o'zga yurtga ishlashga ketganda o'sha davlatda yuzaga keladigan muammolar (ijtimoiy-psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar, qabul qiluvchi jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, yangi madaniyatning migrantlarga stressli ta'siri) bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holatni «hissiy charchash» sindromi kabi tushuniladi. Bu shaxsni umumiy emotsional holatini pasayishi, hamma narsaga befarqlik bilan qarash, majburiyatlardan qochish, juftiga nisbatan munosabatlardagi o'zgarishlarda ko'rinishi mumkin.

Oilada nikohdan qoniqish oilaviy munosabatlarning ko'plab tomonlariga ta'sir ko'rsatadi. Er-xotinning nikohdan qoniqishi oilaviy nizolar, muammolar yuzaga kelganda ularning birgalikda qanday yechim topishi uchun omil bo'ladi. Nikohdan qoniqish nafaqat er-xotin munosabatlarida balki har birida emotsional sohalarda turli hil o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Boshqa davlatga ishlashga ketgan er u o'z nikohidan qoniqanlik darajasi yuqori bo'lsa uning emotsional holatlarda o'zini baholashi shunga mos ravishda tashkil etadi. Nikohdan qoniqishning yuqori bo'lishi hissiy munosabatlarini, farzandlarini ayoliga tashlab boshqa davlatga ishlashga ketganda ulardagi xotirjamlikni oshishiga turtki bo'lsa ($r=0,177$; $p<0,05$), ularda bu holatdan kelib chiqib oilasini moddiy jihatdan ta'minlashda energiyaga to'lishiga ($r=0,180$; $p<0,05$) hamda yuksalish tuyg'usini baland bo'lishi ($r=0,216$; $p<0,01$) o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga zamin yaratar ekan ($r=0,252$; $p<0,01$). Er-xotin o'rtasida o'zaro tushunish darajasi birgalikdagi turmushning inqirozli, sinovli, moslashish davridan so'ng juftliklarda shaxslararo munosabatlarda bir-birini yahshiroq anglay oladilar. Bunga migratsiya sababli inqirozli, nizoli bo'lgan davrda bir-biriga ma'lum darajada yordam beradi. Chunki aynan shu jarayonlarda er-xotinlar past-baland tomonlarini o'rganib bir-biriga moslashib boradi. Migratsiya ketgan migrantlarda xotirjamlikni yuqori bo'lishi aynan o'zaro tushunish omili bilan bog'liqligi kelib chiqdi ($r=0,161$; $p<0,05$).

Emotsional intilishning yuqori bo'lishi emotsional munosabatlardagi yuksalish emotsiyasining yuqori bo'lishiga olib keladi ($r=0,222$; $p<0,01$). Erkaklarda hissiy intilish yuqori bo'lganda ularda hissiy qoniqish yuzaga keladi. Ayollarda esa

aksincha psixologik intilish ustunlik qilib, hissiyotlari erkaklanikiday tez so‘nib qolmaydi hamda uzoqroq bo‘ladi. Turmush o‘rtoqlar o‘rtasida hissiy munosabatlarning pasayishiga oilada bo‘lib turadigan arziyas kelishmovchiliklar, o‘ta faol jinsiy munosabatlar sabab bo‘lishi ham mumkin. Aynan hissiy intilish omilining to‘ydan keyingi vaqt oralig‘da kuchayishi keyinchalik esa fe‘l-atvordagi yaxshi ko‘rsatishlar, pardozi-andozlar, dilni rom qiluvchi odatlar o‘rnini asl hayotiy reallik egallay boshlaydi. Shundagina juftliklar o‘rtasida sevgi hamda simpatiyaning bo‘lmagandagina nikohni asrab qolish murakkablashadi.




1-rasm. Migrant oilalarda jins tafovuti kesimidagi «Shaxsning umumiy-hissiy yo‘nalishini aniqlash» metodikasining ko‘rsatkichlari

Boshqa insonlar bilan muloqot qilish, fikr va tajriba almashish istagi, hamdardlik, mehr, kimgadir hurmat, minnatdorchilik hissi ortishi natijasida kommunikativ emotsiyalarda o‘zgarishlar kelib chiqadi ($U=2205$; $p<0,05$). Glorik emotsiyalarda erkaklarda o‘rtacha rang qiymati 90,67 ni, ayollarda esa 65,77 ni tashkil etdi ($U=2205$; $p<0,01$). Erkaklarda ushbu ko‘rsatkichning yuqori bo‘lishi mehnat migratsiyaga ketishida oilasi hamda ayoli yonida moddiy tomondan pul topishda muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘ladi. Aynan shu orqali begona davlatga ketishi orqali migratsiyaga kelgan shaxs yangi muhitda o‘z o‘rnini topa olish istagi, begona yurtda o‘z shaxsiyatini qadrlash hissi ortib boradi. Uyda erkak boshqa davlatga ishlashga ketganida uydagi barcha ma’suliyat ayolning yelkasiga tushadi. End unda ayollik ma’suliyati bilan bir qatorda erkaklik ma’suliyati ham yuklanadi. Bunda ayollarning uyda hamda ishdagi harakatlari oshishi natijasida asosiy e’tiborlarini faol harakat qilish hamda natijaga erishish ehtiyoji yotadi. Buni biz yuqorida jadvalda ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan ham anglab olsak bo‘ladi, ayollar bu natija 93,65 ni, erkaklarda esa 56,73 ni tashkil etdi ($U=1499,5$; $p<0,01$) (1-rasm).

Romantik emotsiyalarda ham erkaklarda rang ko‘rsatkichlari yuqori natijani tashkil etgan bo‘lib (89,25), ayollarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi esa (66,93) past natijaga ega bo‘ldi ($U=2052,5$; $p<0,01$). Ayollarda chiroyga bo‘lgan ishtiyoqi, estetik idrok natijasida yuzaga keladigan his-tuyg‘ular san’at va tabiat asarlaridan

ilhomlanishi uning tabiatiga hos bo'lgan narsadir. Shundan kelib chiqib ayollarda estetik emotsiyaga bo'lgan ehtiyojning balandligini rang ko'rsatkichlaridan bilsak bo'ladi (85,03) ($U=2223,5$; $p<0,05$). Akziv emotsiyalarning ayollarda yuqori bo'lishi (85,55) o'zbek oilalaridagi ayollarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri sandiqni bola kichikligidan unga sarpo to'plash, tilla buyumlarini hamda xonadonida turli xil gul navlari yig'ishga qiziqish va amaliy ehtiyojlaridan tashqariga chiqadigan narsalarni yig'ish bilan bog'liq his-tuyg'ulardan kelib chiqadi ($U=2179,5$; $p<0,01$) (2-rasm).



2-rasm. Migrant oilalarda «Shaxsning umumiy-hissiy yo'nalishini aniqlash» metodikasining migrantlik muddatiga ko'ra ko'rsatkichlari

Altruistik emotsiyaning migrantlik muddati 1-5 yilgacha bo'lgan mehnat migranti oilalarida o'rtacha rang qiymati 80,71 ni, migrantlik muddati 6-10 yil bo'lganlarning o'rtacha rang ko'rsatkichi 60,71 ni hamda migrantlik muddati 11 yil va undan yuqori bo'lganlarning o'rtacha rang ko'rsatkichi 95,89 ni tashkil etdi ($H=8,797$; $p<0,05$). Kommunikativ emotsiyalar bo'yicha migrantlik muddati 1-5 yilgacha bo'lgan oilalarda rang ko'rsatkichlari 83,12 ni tashkil etdi. Migrantlik muddati 6-10 yilliklarda 60,39 ni, 11 yil va undan yuqori bo'lgan muddatdagilarniki 79,64 ni tashkil etdi ($H=7,561$; $p<0,05$). 1-5 yil muddatdagi mehnat migrantlarda muloqotga bo'lgan ehtiyojni, o'z fikrlari va tajribalarini baham ko'rish, yaqinlar roziligini olish istagining yuqoriligini ko'rsatadi.

Migrantlik muddati bo'yicha birinchi (73,07) va ikkinchi (94,33) guruhlarda ko'rsatkichlarni baland bo'lishi yaxshi daromad topganida oilasi va ayolining e'tibori va hayratiga tushganida eng yoqimli emotsiyalarni boshdan kechiradi. Migrantlik muddati 11 yil va undan yuqori bo'lgan migrantlarda mashhurlikka bo'lgan ehtiyojdan ko'ra tajriba ortirish, muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji yuqori bo'ladi ($H=9,730$; $p<0,01$). 1-5 yil oralig'ida ishlagan migrantlarda faoliyatga bo'lgan ehtiyoj yuqori ifodalangan (88,85). Bu qo'yilgan maqsad hamda kutilayotgan natijalarga erishishga intilish kuchli bo'ladi. Bunday odamlar foydali va zarur ishlarni katta iroda, ishtiyoq bilan bajarish bilan ajralib turadi, agar u qat'iy o'ylangan reja asosida amalga oshirilsa va kerakli natijaga erishadi ($H=24,994$; $p<0,01$) (2-rasm).

Emotsional munosabatlar buzilish jarayonini oldini olishning to'rt bosqichli modelimizda aynan er-xotinlarda turli xil sabablar asosida yuzaga kelgan muammolarni barataraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib o'tilgan. Emotsional munosabatlarning buzilishi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich. Intrapsixik bosqichda aynan nima ushbu munosabatlarda qoniqmatirayotganini anglash, o'zining muammolarini munosabatlardagi ma'lum aspektlari bilan identifikatsiya qilishdir. Er-xotinlarda sog'lom munosabatlarni o'rnatish hamda saqlab qolishda individual suhbat va trening o'tkazish yordamida bir-birini tinglash, muloqat qilish uslublarini belgilash bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlari buzilish jarayonlarini oldini olishning profilaktik modeli

Ikkinchi diadik bosqichda munosabatlaridan qoniqmayotganini aytish orqali jufti bilan munosabatlarini tugatish yoki qayta ko‘rib chiqishga asoslanadi. Ushbu bosqichda ko‘pincha boshqa munosabatlar qurishga faol harakat bo‘ladi. Juftliklar bilan o‘tqazilgan suhbat davomida ular orasidagi hissiy munosabatlar hamda emotsional yaqinlikni rivojlantirish. Uchinchi ijtimoiy bosqichda munosabatlarni yechish yo‘lida boshqa shaxslarni bunga aralashuvi ortida muzokara va yechim yo‘lini ahtarishdir. Bunda salbiy oqibatlarini minimallashtirish hamda muammolarni hal qilishda strategiya ishlab chiqish. To‘rtinchi tugatish bosqichida munosabatlar transformatsiyasi yuzaga keladi. Bunda munosabatlarni tiklashda er-xotinlarga o‘z-fikr tuyg‘ularini, ehtiyojlarini erkin ifodalashda xavfsiz muhit yaratiladi. Salbiy omillarga qarshi himoya mehanizmlari shakllantiriladi.

XULOSA

Migrant oilalaridagi er-xotinlarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari mavzusidagi tadqiqotimizda amalga oshirilgan adabiyotlar sharhi va olingan empirik ma’lumotlar tahlili quyidagi umumiy xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Migrant oilalardagi er-xotinlarning emotsional munosabatlar dinamikasini rivojlanish darajasi past ekanligi aniqlandi. Tahlillarga asoslanib, migrant oilalarda bo‘ladigan o‘zgarishlar asosan er-xotinlarning uzoq muddat birga yashamaslik natijasida ularning hissiy munosabatlarida buzilishlar kuzatilar ekan.

2. Mehnat migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasi migrant bo‘lmagan oilalariga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Migrant oilalarning turmush staji ortishi ularda o‘zaro tushunish, hissiy intilish, o‘zaro hurmat kabi omillarning pasayib borishiga isbotlandi. Oilaning turmush staji ham aynan migratsiya sababli migrant oilalarida er-xotinlarning nikohidan qoniqish darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda oila staji ortgan sari migrant juftliklarida o‘z nikohidan qoniqmay borishi mumkin.

3. Mehnat migranti oilalarda turmush o‘rtog‘ining mehnat qilish uchun xorijga ketishi natijasida oiladagi rollar taqsimotining o‘zgarishi ayollarda nikohdan qoniqish darajasini pasayishi kuzatildi, ya’ni migrantlik muddati 6-10 yil bo‘lgan er-xotin orasidagi o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish omillari juda past ekanlini aniqlandi.

4. Migrant va migrant bo‘lmagan oila juftliklarida hissiy munosabatlarda sevgi hamda simpatiya ko‘rsatkichlari jihatida ham sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, bu migrant oilalarda ko‘proq ustunlikka ega bo‘lgan. Aynan ushbu berilgan ta’rifni inobatga olgan holda, migrant bo‘lmagan oila juftliklarida sevgi ko‘rsatkichining baland bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi, chunki ular orasidagi masofalarning bo‘lmasligi, doimiy birgalikdagi faoliyat, o‘zaro hamkorlik dinamikasi progressiv xarakterda bo‘lgani bois, ushbu turdagi oila muhitida o‘zaro ko‘maklashish, hissiy yaqinlik, tashvishlarga sherik bo‘lish migrant bo‘lgan oila vakillariga qaraganda bevosita turlicha bo‘lishi tabiiy holdir.

5. Mehnat migrant oilalarida migratsiyaga ketishning asosiy sababi oilani moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashdir. Oilada farzandalar sonining ko‘payishi bu ehtiyojni qondirishga sababini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib ayol ham erkak

nikohdagi hissiy munosabatlarni moddiy ehtiyojlardan keyingi o‘ringa qo‘yishi sababli ularda farzandalar soning ortishi bilan nikohdan qoniqish ham pasayib boradi.

6. Migrant va migrant bo‘lmagan oila vakillarining o‘zaro hissiy yo‘nalishlari jihatidan farq qilib, migrant oila vakillari o‘zlarini hissiyotlarida faoliyatni ustun qo‘ysalar, migrant bo‘lmagan oila vakillari kommunikatsiyani ya’ni muloqatni ustun qo‘yishi aks ettirildi.

7. Mehnat migratsiyasiga ketish muddati uzoq bo‘lsa ularda xotirjamlik pasayib, xavotir oshib borar ekan. Atrof-muhitdan kutayotgan kutilmalarning to‘liq qoplanmaganligi oilasidanmi, juftidanmi hoh u ruhiy, hoh u ma’naviy yoki moddiy bo‘lsin qo‘llab-quvatlashni ololmasligi muhtojlikning ortib borish ehtimolini ortiradi, bu esa juftliklar orasida bir-biridan norozilik kayfiyatini uyg‘ota boshlaydi.

8. Oiladagi farzandalarning ko‘payishi, ularni moddiy jihatdan ta‘minlash, o‘qitish, uylantirish kabi muammolar ulardagi emotsional holatining pasayishiga ya’ni tushkunlik holatiga sabab bo‘lar ekan. Bunday vaziyat bilan to‘qnashganda ushbu muammolarni bartaraf etishga sarflangan vaqt oralig‘ida salbiy emotsiyalarni uzoq vaqt his qilib yurishi natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi oqibatida ishonchsizlik shakllanadi.

9. Migrantlik muddatining uzayishi bilan ularning asosiy maqsadi faoliyatga ya’ni pul topishga qaratilishi muloqatga bo‘lgan ehtiyojning pasayishiga olib kelsa, oilaviy turmush tajining ortishi mehnat migrantlarida oldingiday ko‘proq pul topish orqali ayoliga oilasiga o‘zini maqtanish emas va balki yillar o‘tgan sari odilona qarorlar orqali muvaffaqiyatga erishish ustunlik qiladi.

10. Oilada turmush muddati oshgan sari an’anaviy oilalarda er-xotinlarda munosabatlarda iliqlik ko‘tarilib boraveradi. Chunki har bir muammo yuzaga kelganda turmush o‘rtoqlar ularni birgalikda hal qilish yo‘llarini izlaydi. Bu esa turmush o‘rtoqlardagi hissiy munosabatlarda bir-biriga yaqinlashtiradi. Turmush o‘rtog‘ining uzoqda bo‘lishi juftida sirli, noodatiy emotsiyalarni kutish, gnostik hislarini pasayishiga olib keladi. Buning oqibatida pragmatizm xarakter xususiyati oshishiga turtki bo‘lar ekan.

E'LON QILINGAN ILMIY ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I часть; I part)

1. Бўриева М. Социально-психологические характеристики семей мигрантов // Научный журнал. – Вестник интегративной психологии, Ярославль, 2023, Выпуск 30 часть 2. – С. 110-115. (19.00.05; №2).

2. Bo'riyeva M. Migrant oilalarining yangi muhitda moslashishining ijtimoiy-psixologik omillari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, Toshkent. – 2023, 1/9/1 -B. 92-95. ISSN 2181-7234. (19.00.00; №10).

3. Bo'riyeva M. Migratsiya sharoitidagi oilalarning o'zaro emotsional munosabatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. 2023/2 (7). -B. 21-26. DOI: 26739/2118-9998. (19.00.00. №14).

4. Bo'riyeva M. Migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasining psixologik xususiyatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. 2023/4 (9). -B. 72-76. DOI: 26739/2118-9998. (19.00.00. №14).

5. Bo'riyeva M. Sharq mutafakkirlarining asarlarida oiladagi er-xotin munosabatlarini o'rganilishi. "Oila institutini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – B.365-368.

6. Burieva M. Problems arising in families due to labour migration. Pedagogical sciences and teaching methods: a collection scientific works of the International scientific conference - Copenhagen: 2024. P. 180-182.

7. Bo'riyeva M. Zamonaviy migratsiya jarayonlarini o'zbek oilalaridagi barqarorlik omillariga ta'siri // "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning sinergetik muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-texnik konferensiya materiallari. 2023. – B.131-134.

8. Bo'riyeva M. Islom dinida er-xotin munosabatlarining talqin etilishi // "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. – B.601-603.

II bo'lim (II часть; II part)

9. Bo'riyeva M. Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri // Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot ilmiy elektron jurnali. 2023/3.- B. 37-45. ISSN 9874-4126.

10. Bo'riyeva M. Migrant oilalaridagi er-xotin munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences. – 2023, 4 (6) -B.263-267. (Impact Factor: ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF:6,1).

11. Bo'riyeva M. Oilada avlodlararo munosabatlarni ta'minlashda keksa avlodning roli. "Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari

va istiqboldagi muammolar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T.:“Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – B.159-162.

12. Bo‘riyeva M. Oilaviy qadriyatlarning jamiyat rivojlanishidagi roli. “Xavfsiz mahalla – farovon oila” tizimini ijtimoiy hayotga joriy etishning samaradorligini ta’minlash mexanizmlari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T.:“Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – B.287-290.

Avtoreferat «Oila va xotin-qizlar» ilmiy tadqiqot instituti jurnali tahririyatida
2024-yil ____-da tahrirdan o‘tkazildi.

Bosishga ruxsat etildi: ____ .2024-yil
Bichimi 60x84 1/16 , «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulida bosildi.
Nashriyot bosma tabog‘i 3.0. Adadi: 100. Buyurtma: № 48
Bahosi kelishuv asosida

«Oila va xotin-qizlar» ilmiy tadqiqot instituti bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, _Yashnabod tumani,
ko‘chasi, -uy.